

JALOLIDDIN RUMIY IJODI VA HIKMATLARINING BADIY TALQINI

Andijon davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti kafedrası stajyor o'qituvchisi

Karimova Dilobod Halimovna

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi

Abdumalikova Sabrina

Anotatsiya: Ushbu maqolada Jaloliddin Rumiyning hikmatlarining badiiy talqini tahlil qilingan. Uning fikrlarining ruhiy va falsafiy chuqurligi, badiiy tasvirlar, metaforalar va ramzlar yordamida ifodalangan murakkab tasavvufiy g'oyalari o'rganilgan. Rumiyning aforizmlari nafaqat axloqiy va ruhiy yo'riqnomalar sifatida, balki ilohiy muhabbat, o'zini anglash va ichki o'zgarishlarni tasvirlashda badiiy ifoda sifatida ham taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: Jaloliddin Rumi, tasavvuf, aforizmlar, badiiy tasvirlar, ruhiy falsafa, ilohiy muhabbat, badiiy talqin.

Аннотация: В статье рассматривается художественная интерпретация мудрых высказываний Джалаладдина Руми. Анализируется духовная и философская глубина его мыслей, акцентируется внимание на использовании художественных образов, метафор и символов для выражения сложных суфийских идей. Афоризмы Руми представлены не только как нравственные и духовные наставления, но и как поэтические выражения божественной любви, самопознания и внутреннего преображения.

Ключевые слова: Джалаладдин Руми, суфизм, афоризмы, поэтические образы, духовная философия, божественная любовь, художественная интерпретация.

Annotation: This article explores the artistic interpretation of Jalaluddin Rumi's wise sayings. It analyzes the spiritual and philosophical depth of his thoughts, highlighting the use of artistic imagery, metaphors, and symbols in conveying complex Sufi ideas. Rumi's aphorisms are presented not only as moral and spiritual guidance but also as poetic expressions of divine love, self-discovery, and inner transformation.

Keywords: Jalaluddin Rumi, Sufism, aphorisms, poetic imagery, spiritual philosophy, divine love, artistic interpretation

Sharq mutafakkirlarining asarlari asrlar davomida insoniyatni ruhiy va axloqiy jihatdan tarbiyalab kelmoqda. Ular orasida Jaloliddin Rumiy o'zining chuqur tasavvufiy qarashlari, sof ilohiy muhabbatga asoslangan fikrlari, hayot va borliq haqidagi falsafiy mulohazalari bilan ajralib turadi. Uning asarlari — nafaqat diniy va ma'naviy, balki badiiy jihatdan ham benazir durdonalardir. Rumiy ijodi usmonli turk adabiyotining sarchashmasi hisoblanadi.

Rumiydan she'rlar devoni, „Makotib“, „Ichindagi ichindadir“ („Fihi mo fihi“) hamda „Masnaviyi ma'naviy“ kitoblari meros bo'lib qolgan. „Ichindagi ichindadir“ nasriy asar bo'lib, olimning turli majlis va suhbatlardagi falsafiy nutqlarining majmuasidir. „Makotib“ esa, muallifning zamondoshlari va ustozlari bilan bo'lgan turli yozishmalari – maktublaridan iborat. Har 2 asarda muallifning ijtimoiy-falsafiy, axloqiyta'limiy mushohadalari, tasavvufga doir nazariy qarashlari o'z ifodasini topgan. Shoir devoni turli janrlardan iborat 25 ming baytdan ziyod she'rlarni o'z ichiga olgan.

Rumiy she'riyati, asosan, ilohiy ishq bilan bog'langan. U o'zining barcha asarlarida yer-u ko'kning sohibi bo'lmish Alloh va uning zamindagi xalifasi hazrati insonni ulug'laydi. R.ning mashhur asari „Masnaviyi ma'naviy“dir. Asarda Qur'oni karim va Hadisi sharif ma'nolarini o'ziga singdirgan, inson hayoti bilan bog'liq barcha masalalar badiiy yo'sinda bayon etilgan. 6 jild (daftar)dan iborat asarning dastlabki qismlarini adibning shogirdi Hisomiddin Chalabiy ustози og'zidan yozib olib, tahlildan o'tkazgan. Chalabiy vafotidan so'ng muallif asarning davomini 10 yilda yozib tugatadi. Qur'oni karim oyatlarining 70 foizi mohiyatini o'zida mujassamlashtirgan, 270 dan ziyod hikoyalarni,

yuzlab pand-u hikmatlarni o‘z ichiga olgan bu kitob o‘z vaqtida va keyinchalik ham yozuvchi nomining dunyoga keng tarqalishiga sabab bo‘lgan. Chunki Rumi masnaviyda o‘zigacha bo‘lgan Sharq-u G‘arb donishmandlarining falsafiy qarashlarini, islomiy farzlarni sodda bir uslubda, she’riy yo‘l bilan badiiy ifodalagan.¹ Ayniqsa, hikmatli so‘zlari she’riy go‘zallik, falsafiy chuqurlik va ma’naviy tarbiya jihatidan yuksak bahoga loyiq.

Rumiyning hikmatlari ko‘pincha tasavvufiy qarashlar asosida shakllangan. Ular orqali muallif insonni ichki poklik, ruhiy kamolot, ilohiy muhabbat va vujudiy haqiqat sari yetaklaydi. Uning fikricha, inson zohiriy dunyodan ko‘ra, botiniy haqiqatga yuzlanmog‘i kerak. Quyidagi hikmatda bu g‘oya ochiq ifoda etilgan:

“Sen zohirsan — senga qarasang, toshsan. Ammo botining — yakka Haq bilan to‘la bir ko‘zgu.”

Bu yerda Rumi tashqi ko‘rinishga berilish, nafsga ergashish orqali inson o‘zini yo‘qotishini ta’kidlaydi. Shuningdek, u botin dunyosini — ilohiy nur, ruhiy kuch manbai sifatida talqin etadi. Ushbu fikrlar "ko‘zgu", "nurlar", "soylar", "dengiz", "mum" kabi badiiy timsollar orqali ifodalanadi.

Badiiy ifoda vositalari:

Rumiyning hikmatli so‘zlari poetik jihatdan ham yuqori darajada. U ko‘p hollarda quyidagi badiiy usullardan foydalangan:

1. Tashbih — “Inson qalbi ko‘zgu kabi, uni faqat tozalash kerak.”
2. Isti’ora — “Yuragingni yondir, shunda qorong‘ilik nurlanadi.”
3. Antitezalar — “Sen yo‘qsan, ammo mavjudsan. Sen jim, ammo sening sukunating dunyoni larzaga soladi.”

Bu kabi san’at vositalari yordamida u murakkab tushunchalarni sodda, ammo ta’sirli shaklda ifoda etishga erishgan.

¹ Sultonov, M. Tasavvuf — ma’naviyat manbai. — Toshkent: O‘zbekiston, 2002. — B. 97.

Rumiy ijodining markaziy g'oyasi — ilohiy muhabbatdir. Uning fikricha, haqiqiy sevgi — bu nafsiy ehtiros emas, balki qalbning Haqqa intilishi, mavjudlik asosiga yetmoq istagidir.

“Muhabbat — bu Haqdan bo‘lak barcha narsani unutmoqdir.”

U sevgi orqali inson o‘z “men”idan voz kechadi, o‘zligini Haq bilan uyg‘unlashtiradi.² Bu g‘oya Rumiy asarlarida doimiy ravishda badiiy obrazlar vositasida ifodalanadi: yongan sham, erigan mum, sahroga aylangan ko‘ngil, dervish raqsi kabi.

Rumiyning hikmatlarida inson — ruhiy sayohatchi sifatida tasvirlanadi. U hayot yo‘lini “sayr suluk” deb ataydi. Bu yo‘lda sabr, tavozu, o‘zini anglash, Haqni izlash muhim qadriyatlar hisoblanadi. Rumiyning quyidagi fikri buning yaqqol dalilidir:

“Sen yur, yo‘l o‘zi ochiladi.”³

Bu yerda badiiy timsol — yo‘l — inson hayotining o‘xshatmasidir. Harakat, izlanish, harakatdagi baraka g‘oyalari tasviriyl ifodaga ega bo‘lgan. Rumiyning asarlarida Haq ta'rifi juda ko'p keltirilgan. Ollohning buyukligi, uning mehribonligi va barchaga tengligi go'zal misralarda tasvirlanadi: Haq o'zi jonlarga deb nur yog'durur, Baxtiyorlar unga doman to'ldirur. Umuman, Haq va haqiqatdan olis, na olam, na odam hikmatini anglamaydigan kimsalarga oddiy hayot haqiqatlari misolida borliqni, Ollohn anglash yo'li ko'rsatiladi. "Taom bilan to'lgan medada hikmat bo'lmas", deydi Z. Misriy. Bu - nafs, xirs, ta'ma bandalari hikmatdan uzoqligi bildiradi. Chunki, hikmat pokiza ko'ngil va taskin topgan ruhlarga Olloh tomonidan tuhfa yuboriladigan ilohiy so'z hamda ma'nolardir. Hikmat nurlari chin faqir, orif, diydortalab oshiq'larga foydaliroq bo'lgay, ular bu nurlardan ko'proq bahra oladilar va shukrona qiladilar. Ularning ilmi haqiqiy ilm, onglari, vujudlari ma'rifat nuri bilan jilolangan bo'ladi. Bu kabi toza qalb sohiblari Sharq tarixida ko'plab uchraydi. Ularning asarlarida ham rumiyyona falsafa yetakchilik qiladi. ⁴Boshqacharoq

² Sultonov, M. Tasavvuf — ma'naviyat manbai. — Toshkent: O'zbekiston, 2002. — B. 97.

³ Rumiy, Jaloliddin. Masnaviy Ma'naviy. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2012. — B. 75.

⁴ Mamatqulov, O. Tasavvuf va mumtoz she'riyat. — Toshkent: Fan, 2006. — B. 123.

aytganda, ular qalbining pokizalanishida Rumiy ijodiyotining o'rni beqiyosdir. Jumladan, Mashrab asarlarida ham Rumiy fikrlariga hamohanglik kuzatiladi:

Ham Avvaldur, ham Oxirdur va ham Zohir-u ham Botin, Muhaqqaq bandalar hozir bilur bir zoti Allohni.

Mavlonο Rumiy komil inson deganda mehr-muruvvatli, adolatli, to'g'ri so'z, vijdonli, or-nomusli, irodali, tadbirkor, matonatli, o'z ishiga fidoyi, ma'naviyati yuksak kishilarni tushungan. Komil insonni shakllantirish Vatanga sadoqat, yurt tinchligini saqlash tuyg'usi bilan bog'liq ekan, uning quyidagi jihatlariga e'tiborni qaratishimiz lozim.

Rumiy ijodida inson erki, ma'naviy komillik, o'zlikni anglash, tavakkul, Olloh ishq, ma'rifat, shariat, tariqat, shukr qilib yashash, nafsni yengish, qanoat, haqiqat, adolat, xayr-u saxovat kabi o'ndan ortiq g'oyalar yetakchilik qiladi. Jaloliddin Rumiyning hikmatlari — bu nafaqat tasavvufiy ta'limot, balki badiiy ifoda san'atining namunasi hamdir. Uning har bir hikmati o'zida ruhiy teranlik, axloqiy tarbiya, falsafiy chuqurlik va badiiy go'zallikni mujassam etgan. Rumiy fikrlarining zamonaviy inson uchun ham dolzarbligi shundaki, ular har doim ichki uyg'onish, ruhiy poklanish va insoniylik sari undaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Руми, Джалал ад-Дин. Маснави-и маънави / Перевод с персидского, комментарии и вступительная статья — Н. Османов. — М.: Наука, 1989. — 608 с.
2. Rumiy, Jaloliddin. Masnaviy Ma'naviy (tanlangan hikmatlar). — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2012. — 320 b.
3. Mamatqulov, O. Tasavvuf va mumtoz she'riyat. — Toshkent: Fan, 2006. — 248 b.
4. Sultonov, M. Tasavvuf — ma'naviyat manbai. — Toshkent: O'zbekiston, 2002. — 176 b.
5. Badiiy adabiyot ensiklopediyasi. 2-jild. — Toshkent: Fan, 1981. — 500 b.